

AHOLINI TURMUSH DARAJASI HAMDA DUNYONING AYRIM

DAVLATLARIDA AHOLINI HAYOT DARAJASI HAQIDA

Jobborov A'zam Mashrabovich

Qo'qon Davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakul'teti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida dotsenti, biologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston).

Tojiboyeva Maxliyo A'zamjon qizi

Qo'qon Davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakul'teti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida o'qituvchisi.

Mashrabjonov Ulug'bek A'zamjon o'g'li

Qo'qon Davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakul'teti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasida stajyor-o'qituvchisi.

Annotation:

Ushbu maqolada aholining hayot darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar, tartib va talablar, oziq-ovqat savatchasi shuningdek dunyoning ayrim mamlakatlari aholisining hayot darajasi haqida qiyosiy va taqqoslama ma'lumotlar berilgan .

Key words : Aholi turmush darajasi, uni belgilovchi ko'rsatkichlar, daromadlar siyosati, talablar aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM, rivojlangan davlatlar, rivojlanayotgan davlatlar, hayot darajasi, turmush sharoiti, farqlar .

Annotation:

This article determines the standard of living of population indicators, procedures and requirements, food basket , as well as, comparative information about the standard of living of the population of some countries of the world.

Keywords: Standards of living of the population, indicators determining it, income policy, requirements, GDP per capita , developed countries, developing countries, standard of living, living conditions, differences.

"Aholi turmush darajasi" tushunchasi juda murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uni tavsiflash uchun biror indikatori tanlash qiyin, shuning uchun bu atamaning turli jihatlarini tavsiflaydigan bir qator statistik ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi. Bugungi kunda aholining turli guruhlari manfaatlarini hisobga olinmoqda, ish bilan bandlikning samarali tizimi va ish haqi to'lash tizimi, aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish orqali har bir insonga munosib hayot bilan ta'minlanmoqda.

Har qanday jamiyatda daromadlar siyosati davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim

bir qismi hisoblanadi. U davlatda muayyan paytda mavjud bo'lgan iqtisodiy institutlar, davlat belgilab bergan ustuvorliklar va u foydalanadigan vositalar bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Davlatning daromadlar sohasidagi siyosatining maqsadi – aholi farovonligi va rivojlanishini oshirish hamda uning ijtimoiy taraqqiyotga intilishini rag'batlantirishdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun daromadlar siyosati quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak:

- aholining kam ta'minlangan qatlamlarining turmush darajasini barqarorlashtirish;
- qashshoqlik miqyoslarini qisqartirish;
- aholi daromadlari tabaqalanishining o'sishini hamda jamiyatning tabaqalashuvini to'xtatish;
- mehnatga haq to'lashning daromadlarning asosiy manbayi va xodimlar iqtisodiy faolligining eng muhim rag'batlantiruvchi omili sifatidagi rolini oshirish;
- keng xalq ommasining turmush darajasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Daromadlar siyosati davlat ijtimoiy siyosatining eng muhim qismi sifatida tashkil topadi.

Daromadlar siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

– eng kam oziq-ovqat va iste'mol savatlari, eng kam miqdordagi tirikchilik budjeti; eng kam ish haqi, budget sohasi xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun yagona tarif setkasi va birinchi razryad tarif me'yori kabi davlat ijtimoiy standartlarini belgilash orqali mehnatga haq to'lash o'lchamlariga ta'sir qilish;

– yashash minimum budjetlarini belgilashda mamlakat hududini zonalashtirish asosida, shuningdek, ish haqiga tuman koeffitsientlarini va ish stajlari uchun ustama haqlarni o'rnatish asosida daromadlar va ish haqini mintaqaviy ravishda tartibga solish;

Daromadlar siyosatining mexanizmi shundan iboratki, u qonunlar, hukumat qarorlari orqali quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

– aholi turmush darajasini davlatning minimal ijtimoiy standartlari tizimi bilan tartibga solish. Davlatning minimal ijtimoiy standartlari – bu qonunlar bilan o'rnatilgan me'yorlar bo'lib, ular mehnatga haq to'lash, pensiya ta'minoti, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida aholini ijtimoiy himoyalashning eng kam darajasini kafolatlaydi;

Shunday qilib, daromadlar siyosati ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari tomonidan daromadlarni tashkil qilish, taqsimlash va ulardan foydalanish sohasidagi amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi bo'lib, bu tadbirlar ularning manfaatlarini muvofiqlashtirishga va qo'yilgan maqsadlarga erishishni ta'minlashga imkon beradi.

Dunyo mamlakatlarida aholini hayot darajasi sivilizatsiya, urbanizatsiya va FTI sababli doimiy ko'tarilib bormoqda. Aholini hayot darajasi bir necha ko'rsatkichlar bo'yicha belgilanadi va o'rganiladi. Shulardan ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz.

Aholini hayot darajasini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich bu YaIM ni aholi jon boshiga AQSH dollarida ko'rinishidir.

Eng yuqori daromadli ya'ni aholi jon boshiga 50 000 AQSH dollarlaridan ortiq YaIM to'g'ri keluvchi davlatlar rio'yxatida birinchi o'rinda AQSH emas, balki Qatar davlati turadi. Bu davlatda 2018- yil aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM 126 600 AQSH dollarlaridan ortdi. Sabablari: "neft - gaz dollari" ni doimiy ko'payib borishi, aholi sonini ko'p emasligi (2,9 mln. 2020-yil). Qatardan so'ng 2- o'rinda AQSH (62 600 AQSH \$), keyingi o'rinlarda Saudiya Arabistoni (55 100 AQSH \$), BAA, Quvayt, Baxrayn, Avstraliya, Shvetsariya, Luksemburg, Norvegiya, Irlandiya kabi davlatlar turadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM miqdori eng kam (1000 AQSH dollaridan kam) bo'lgan davlatlar: Somali (400 AQSH \$), Yaman, Avg'oniston, KDR, MAR, Papua -Yangi Gvineya kabi rivojlanayotgan davlatlardir.

Seyshel orollari, Bagam orollari, Maldiv, Fiji, Kabo-Verede, kabi orol davlatlarda mamlakat YaIM sini 30 % dan ortig'i xalqaro turizmdan tushadi.

Mamlakat aholisini hayot darajasini ko'rsatuvchi yana bir mezon bu aholini zamonaviy maishiy nonotexnologiyalar bilan ta'minlanishi va foydalanishidir. Shu o'rinda quyidagi ma'lumotlarni taxlil qilamiz (2017-yil ma'lumotlari).

Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda internetdan foydalanish ko'rsatkichi va salmog'i yuqori. Masalan, Quvaytda har 1000 aholidan 1000 tasi, Islandiyada 983 tasi, Qatarda 974 tasi internetdan foydalanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa bu ko'rsatkich ancha past. Masalan, Eritreyada har 1000 kishidan 13 tasi, Somalida 20 tasi, Burundi davlatida 27 tasi internetdan foydalanadi xolos.

Uyali aloqa telefonidan foydalanish va ularni sonida ham rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar orasida keskin farqlar bor.

Har 1000 kishiga BAA da 2090 ta, Maldiv orollari davlatida 1813 ta uyali aloqa telefoni to'g'ri kelgani holatida, bu ko'rsatkich Eritreyada 203 ta, Somalida 65 tani tashkil etadi.

Albatta bu ko'rsatkichlarni o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жобборов А. М., Тожибоева М. А. Yoshlarga ekologik tarbiya berishda "Muqaddas qadamjoylar" o'rni. Илм-фан ва рақамли иқтисодиётни ривожлантиришда география фанини ўрни" мавзусидаги Республика илмий амалий анжумани материаллари. Қўқон 2021. 80-82 бетлар
2. Jobborov A. M. , Akbarova L. Dunyo davlatlarida axolining xayot darajasi. "Maktabda geografiya" jurnali 2019 y. 6-son 25-bet
3. Mamatqulova T. A. "Hayot afsunlari" filmida o'zbek mahallasi tasviri. "Ijodiy parvoz" gazetasi 4-bet
4. Nazarov H. Yo. Geografiya ta'limida dars, undagi tarbiya va ta'limning o'rni. Farg'ona vodiysida tabiatdan foydalanish va muxofaza qilishning dolzarb muammolari Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Namangan 2014. 18-21 bet

5. Тожибоева М. А. Географик компитентликни янги педагогик технологиялар орқали ривожлантириш. “Geografiya fani va uni o’qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika miqyosida ilmiy-nazriy anjumani. Nukus 2022. 775-779 bet